

---

“Paxtakor” mahallasida tikilayotgan trikotaj mahsulotlari Moskvaga eksport qilinmoqda

Qo’shtepa tumanidagi “Paxtakor” MFY hududida joylashgan “Yo’lchiyev Ilhomjon Ilmiddin o’g’li” YATT rahbari Muhridin Yo’lchiyev 2020 yili hokim yordamchisining tavsiyasiga ko’ra 35 million so’m imtiyozli kredit olib, o’z faoliyatini yo’lga qo’ygan edi.

Hozirgi kunda mahalladagi tikuvchi opa-singillarimiz tomonidan tikilayotgan trikotaj mahsulotlari, Rossiya poytaxti Moskva shahriga eksport qilib kelmoqda.

Tuman hokimi A.Abdullayev va sektor rahbarlari ushbu tikuvchilik syexida bo’lib, yaratilgan sharoit va imkoniyatlar bilan yaqindan tanishdilar. Suhbat davomida tadbirkorning kelgusi rejalari qo’llab-quvvatlanib, zarur tavsiya va ko’rsatmalar berildi.

2024-12-19 14:24:25